AXBOROT-TEXNOLOGIYALARINI OLIY TA'LIM TIZIMIDA JORIY ETILISHI INSON KAPITALI MEXANIZMI SIFATIDA

Xalilova Muxabbat Ruzmurodovna
Navoiy davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
e-mail:xalilovamuhabbat70@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlarida aks etgan axborot texnologiyalarini oliy ta'lim tizimida talqin etilishi, ta'lim sifati va inson kapitali, kadrlar masalasi, oliy ta'limning me`yoriy huquqiy ta`minoti, dunyo standartlariga javob berishi, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kasbiy mahoratni rivojlantirish,ta'lim sifatini ta`minlash, axborot almashinish tizimlarini rivojlantirish, dasturiy pedagogik vositalar integratsiyasi, IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish kabi masalalar ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha global miqyosda talqin etib berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, integratsiya, konsepsiya, ijtimoiy, iqtisodiy,elektron hukumat, xalqaro tajribalar, inson kapitali, investitsiya, texnik vositalar.

Annotation. The article explores Uzbekistan's governmental focus on modernizing the higher education system through information technology as per the President's decrees. It highlights key areas such as educational quality, development of human resources, alignment with global standards, and the advancement of e-governance and digital literacy. Emphasis is placed on fostering critical thinking, creativity, and professional expertise, along with enhancing information-sharing infrastructures, integrating digital teaching tools, and preparing IT specialists. The discussion also covers the global perspective on training in IT, addressing both practical and theoretical dimensions.

Keywords: information technology, quality of education, workforce potential, integration, concept, social, economic, e-government, international experiences, human capital, investment, technical resources.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida: xalqaro tajribalarga tayangan holda, oliy ta'lim standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv fan dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta'limdan amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish; ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish vazifalari belgilab berildi.

Ushbu qarorning amaliy huquqiy ta`minoti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida ITparklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash, ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtlari va raqamli texnologiyalarni o‘qitish markazlari negizida davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas’ul rahbarlarini o‘qitish va malakasini oshirishni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar belgilanganlii davlatimiz tomonidan siyosiy qadriyatlar sifatida ta’lim ilm fanning zamonaviy tarzda global talqin etilganligidan dalolat beradi.

Mamlakatlar taraqqiyotida ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalar muhim o‘rin tutayotgan zamonaviy dunyoda inson kapitalining ahamiyati tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishning asosiy g‘oyalaridan biri inson kapitalini rivojlantirish bo‘lib, u inson ehtiyojlari va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratishni nazarda tutadi. “Ozbekiston-2030” strategiyasi ijrosini tahlil qilish davlatimiz tomonidan bu borada salmoqli yutuqlarga erishilganidan dalolat beradi. Inson kapitalining asosiy elementlaridan biri ta’lim bo‘lib, bu yerda “O‘zbekiston 2030” strategiyasida xalqaro standartlarga javob beradigan, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kasbiy mahoratni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim tizimini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Darhaqiqat davlatimiz tomonidan bugungi kunda ta’lim sifati va kadrlar salohiyatini jahon andozalariga maslashtirish masalasida qabul qilinadigan farmon va qarorlar imkoniyatlar beshigi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan bugungi kunda inson kapitalining zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim tizimiga tadbiq etish, ta’lim sifatini ta`minlash bilan birga inson ongi tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim davlatning bugungi va ertangi taqdirini hal etishda shubhasiz beqiyos o‘rin tutadi. Taraqqiyot tasodif emas, uni amalga oshirish tinimsiz inson kapitaliga investitsiyalar kiritish, yangilash va raqobat muhiti asosida yuzaga keladi.

Jamiyatimizda ta’limga qaratilgan islohatlar natijasida ta’lim muassasalarinign moddiy texnik bazasi va axborot almashinish tizimlarini rivojlantirish, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalari hamda dasturiy pedagogik vositalarini integratsiya qilish orqali o‘quv jarayonini dunyo standartlariga mos ravishda imkoniyatlar yaratilmoqda.



Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishdanmaqsad ham aynan o‘quvchilarni zamonaviy axborotlar, texnika vositalar bilan tanishtirish, bu sohada savodxonlik darajalarini oshirish, eng asosiysi mazkur axborotlardan to‘g‘ri foydalanish va inson kapitalini tahliliy va tanqidiy qobiliyatini yuzaga keltirib, mustaqil ijodiy, malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari – bu insonlarning bilimlarini rivojlantiradigan, ularning texnika va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bo‘yicha imkoniyatlarini kengaytiradigan ma’lumotlarni tashkil etish, saqlash ishlab chiqish, tiklash, uzatish usullari va texnik vositalardir.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta’lim samaradorligini oshirish, ta’limning yuqori sifat darajasida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishni ta’minlash, mustaqil ta’lim olish va o‘z-o‘zini mustaqil nazorat qilish imkonini yuzaga keltirish, bilim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, axborotni mustaqil o‘rganishning turli uslublarini qo‘llash, o‘quv materiallarni o‘rganish vaqtini tejash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT-sohasidagi kasblarni

ommalashtirish kabi bir qator mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirishda innovatsiya va axborot texnologiyalaridan keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Darhaqiqat, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini kredit –modul tizimida tashkil etish zamonaviy ta’limning muhim jihatlaridan biri bo‘lib talabalarning kompetentligini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etib mustaqil harakatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ayni shunday sa’y-harakatlar amalga oshirilish, ta’limda mustaqil ishlashning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etishni yanada jadallashtirish, talabalar va professor-o‘qituvchilarni ilg‘or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini chuqur o‘rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta’lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida axborot texnologiyalari bilan zamonaviy pedagogik texnologiyani birgalikda ta’lim jarayoniga tatbiq etish mustaqil o‘qitish jarayonida juda yaxshi samara beradi. Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o‘qitishning interaktiv metodlari yordamida mustaqil ta’lim olishni yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi.

Talabalar bilimini har xil turdagi mashg‘ulotlar bo‘yicha xolisona baholash mezonlari, tanqidiy fikrlash va ijodni rivojlantirish, interaktiv ta’lim bo‘yicha metodik ishlanmalarni yaratish zamon talabidir. Ta’lim sifatini boshqarish asosan informatsion texnologiyalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish va samarali pedagogik faoliyat uchun sharoitlar yaratishga yo‘naltirish kerak. Informatsion texnologiyalarni qo‘llash sharoitida o‘qituvchi faoliyati o‘zgaradi. Bu esa o‘qituvchining yangi pedagogik muhitda yangi o‘qitish vositalarini qo‘llab, talabalarga tayyor bilimlarni berish emas balki ularga yangi bilimlarni mustaqil izlash va topish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Axborot texnologiyalarining amaliy ahamiyati quyidagi jarayonlarda yaqqol oz ifodasini topadi:



1. Ta’lim jarayonining barcha subyektlarining axborot texnologiyalar orqali o‘zaro ta`sirini o‘z ichiga olgan kompetensiyalarni rivojlantirishni ta`minlaydi;

2. Pedagogik jamoada, ta’lim oluvchilar va ularning ota-onalari bilan kasbiy o‘zaro hamkorlik ishlarini jadallashtiradi;

3. Ta’lim jarayonining barcha sub`ektlarining axborot texnologiyalar orqali o‘zaro ta`sirini o‘z ichiga olgan kompetensiyalarni rivojlantirishni ta`minlaydi;

4. Pedagog va talabalarning axborot texnologiyalari va raqamli vositalar va resurslardan foydalanish sohasida uzluksiz rivojlanishga yo‘naltirilgan o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga olib keladi;

5. Pedagogning axborot resurslarini tanlash va ularni ta’lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashtirish,o‘z raqamli resurslarini yaratishi va o‘quv jarayonining barcha sub`ektlari uchun ulardan xavfsiz foydalanishni ta`minlash qobiliyatini yuzaga keltiradi;

6. Ta’lim jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishni, ya`ni ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishni ta`minlashga, shuningdek, guruh shaklida ishlashda samarali o‘zaro ta`sirini amalga oshirishga qaratilgan kompetensiyalarni qamrab oladi;

7. Baholash jarayonida raqamli vositalardan foydalanish bilan bog‘liq kompetinsiyalarni belgilaydi. Ta’lim oluvchilar faoliyati haqidagi ma`lumotlarni tahlil qilish va tanqidiy baholash, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘z vaqtida va samarali hisobot berish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

8. Pedagogning shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayoni tamoyilini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish, ta’lim oluvchilarni ta’lim jarayoniga maksimal darajada jalb qilish uchun raqamli ta’lim muhitida tabaqalashtirilgan yondashuvni ta`minlash va o‘qitish uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keladi.

Axborot muhitida maxsus norma va qoidalarga rioya qilishni tavsiya etamiz: Axborot etikasi — bu onlayn muhitda o‘zini tutish qoidalari va tamoyillari to‘plamidir. Raqamli etika bizga

Internetda va boshqa raqamli muhitda nima qilish mumkin va nima qilish mumkin emasligini tushunishga yordam beradi.

Axborot etikaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Xavfsizlik: shaxsiy ma’lumotlaringizni himoya qilish va raqamli hayotingizni xavfsizligi ta’minlanishi lozim.
- Maxfiylik: boshqa odamlarning shaxsiy hayotiga oid ma’lumotlar maxfiyligiga rioya qilish va ularning ma’lumotlariga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish kerak.
- Hurmat: Internetdagi boshqa odamlarning huquqlari, fikrlari va chegaralarini hurmat qilish kerak.
- Ishonchlilik: siz faqat tasdiqlangan va to‘g‘ri ma’lumotlarni baham ko‘rishingiz kerak.
- Mualliflik huquqi: mualliflik huquqini hurmat qilish va buzmaslik, mualliflik huquqini buzuvchi kontentni yuklamaslik yoki tarqatmaslik kerak.
- Ko‘p madaniyatli: madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va boshqa madaniyatlar va fikrlarga ochiq bo‘lish kerak.
- Shaxsiy javobgarlik: internetda sizning harakatlaringiz va ularning oqibatlari uchun javobgarlikni o‘z zimmangizga olishingiz kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim tizimida axborot-texnologiyalarida foydalanish ta’lim sifatini rivojlantirish bilan bir qatorda, dunyo standartlariga javob beradigan ta’lim muhitini yuzaga keltiradi. Ta’limda erkinlik. shaffoflik, adolat kabi jarayonlarni qaror toptiradi. Qog‘ozbozlik ortiqcha mehnatni oldini oladi. Davltning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotini rivojlantirib, kadrlar masalasida raqobat muhitini yuzaga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida Respublikamizning dunyo hamjamiyatida rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin olishga amaliy natijasini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son

3. Ахромеева Т.С., Малинецкий Г.Г., Посашков С.А. Смыслы и ценности цифровой реальности: Будущее. Войны. Синергетика // Философские науки. 2017. № 6. С. 104-120.

4. Буданов В.Г. Новые технологии цифровой жизни – перспективы и риски изменений антропосферы // Философские науки. 2016. № 6. С. 47-55.

5. Дубровский Д.И. Электронная культура. Кто против? // Философские науки. 2017. № 2. С. 50-57.

6. Кутырев В.А. О судьбе управления и права в цифровом обществе // Вестник Нижегородской академии МВД России. 2019. Номер 1 (45). С. 278-281.

7. Луман Н. Правда СМИ. М.: Праксис, 2005. - 256 с.